



UDK: 930.2:929(575.1)

Bekzod X.ABDULLAYEV,
Mustaqil tadqiqotchi, Andijon davlat universiteti, Andijon, O'zbekiston
E-mail: bekzodabh@gmail.com, ORCID: 0009-0007-4396-4415

Adu dotsenti PhD J.Xasanov taqrizi asosida

ACADEMICIAN RAHIMA AMINOVA'S SCIENTIFIC SCHOOL AND HER CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF THE SYSTEM OF TRAINING HISTORIANS IN UZBEKISTAN

Annotation

This article examines the role of Academician Rahima Aminova in the formation of a scientific school in the field of history and her contribution to the training of highly qualified historians in Uzbekistan. Based on archival materials, memoirs of her students, dissertation studies completed under her supervision, and historiographical analysis, the article reveals the main directions of her scientific leadership. Particular attention is paid to the evolution of dissertation topics, the methodology of scientific supervision, and the impact of her scientific school on the development of historical science. The study concludes that Rahima Aminova created one of the most influential scientific schools in Uzbek historiography and made a significant contribution to the continuity of national historical scholarship.

Key words: Rahima Aminova, scientific school, historiography, historical science, scientific supervision, doctoral studies, candidate dissertation, Uzbekistan.

НАУЧНАЯ ШКОЛА АКАДЕМИКА РАХИМЫ АМИНОВОЙ И ЕЁ ВКЛАД В ПОДГОТОВКУ ИСТОРИЧЕСКИХ КАДРОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье исследуется вклад академика Рахимы Аминовой в формирование научной школы и подготовку научных кадров в области истории Узбекистана. На основе архивных материалов, воспоминаний учеников, анализа защищённых под её руководством диссертаций и историографического анализа раскрываются основные направления её научно-педагогической деятельности. Особое внимание уделяется методологии научного руководства, эволюции тематических направлений исследований и роли её научной школы в развитии исторической науки Узбекистана.

Ключевые слова: Рахима Аминова, научная школа, историография, историческая наука, научное руководство, Узбекистан.

RAHIMA AMINOVANING ILMIY MAKTABI VA O'ZBEKISTONDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada akademik Rahima Hodiyevena Aminovaning O'zbekistonda tarixchi kadrlar tayyorlash tizimi rivojiga qo'shgan hissasi, uning ilmiy maktabi shakllanishining asosiy bosqichlari hamda ilmiy rahbarlik faoliyatining o'ziga xos jihatlari tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida olimaning rahbarligida himoya qilingan dissertatsiyalar, shogirdlarining xotiralari, arxiv hujjatlari va ilmiy merosi asosida uning ilmiy-pedagogik faoliyati kompleks o'rganildi. Tadqiqot natijasida Rahima Aminovaning O'zbekistonda milliy tarixchi olimlar avlodini shakllantirishda muhim ilmiy maktab yaratgani asoslab berildi.

Kalit so'zlar: Rahima Aminova, ilmiy maktab, tarixshunoslik, ilmiy rahbar, tarixchi kadrlar, dissertatsiya, O'zbekiston tarixi.

Kirish. Yangi O'zbekiston sharoitida tarix fanini zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida rivojlantirish, milliy tarixshunoslik maktablarini ilmiy jihatdan qayta baholash va ularga xolis tarixiy baho berish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston tarix fanining rivojiga katta hissa qo'shgan olimlarning ilmiy merosi va pedagogik faoliyatini kompleks tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi [1].

Akademik Rahima Hodiyevena Aminova XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston tarixshunosligining eng yirik namoyandalardan biri sifatida nafaqat agrar tarix, xotin-qizlar tarixi va ijtimoiy-iqtisodiy tarix yo'nalishlarida fundamental tadqiqotlar yaratdi, balki respublikada tarixchi olimlar avlodini shakllantirishga ham ulkan hissa qo'shdi [2]. Uning ilmiy faoliyati natijasida yuzlab tarixchi mutaxassislar tayyorlandi, o'nlab fan doktorlari va fan nomzodlari yetishib chiqdi hamda mustaqil ilmiy maktab vujudga keldi [3].

Rahima Aminova ilmiy maktabining o'ziga xosligi shundaki, u faqat bitta ilmiy yo'nalish bilan cheklanmagan. Dastlab agrar tarix muammolari ustuvor bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ta'lim tarixi, irrigatsiya, yoshlar harakati, milliy ziyolilar tarixi, xotin-qizlar tarixi va ijtimoiy tarix kabi ko'plab yo'nalishlarni qamrab oldi. Bu esa olimi ilmiy rahbarlik faoliyatining keng qamrovli va tizimli xarakterga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Rahima Aminovaning ilmiy maktabi shakllanishi, ilmiy rahbarlik metodologiyasi hamda uning O'zbekiston tarixchi kadrlarini tayyorlash tizimiga qo'shgan hissasini zamonaviy tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rahima Aminovaning ilmiy faoliyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin [4].

Birinchi guruhni olimaning o'z monografiyalari, ilmiy maqolalari va dissertatsiyalari tashkil etadi. Ularda O'zbekiston

agrar tarixi, kollektivlashtirish, urush yillaridagi qishloq xo'jaligi, xotin-qizlar masalasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy tarixning turli yo'nalishlari yoritilgan. Ushbu asarlar keyingi tadqiqotlar uchun nazariy va metodologik asos vazifasini bajargan [5].

Ikkinchi guruhga Rahima Aminova rahbarligida himoya qilingan dissertatsiyalar kiradi. Mazkur ishlar olimaning ilmiy maktabi evolyutsiyasini o'rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, 1960–1990-yillar davomida himoya qilingan dissertatsiyalar tahlili ilmiy yo'nalishlarning bosqichma-bosqich kengayib borganini ko'rsatadi [6]. Dastlab agrar tarix ustuvor bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ta'lim tarixi, irrigatsiya, yoshlar harakati, milliy ziyolilar, xotin-qizlar tarixi hamda ijtimoiy tarixga oid tadqiqotlar ham amalga oshirilgan [7].

Uchinchi guruhni Rahima Aminovanning shogirdlari va zamondoshlari qoldirgan xotiralar tashkil etadi. Qurbongul Saidova, Ibrohim Olimov, Zulfiya Orifxonova, Ilhom Saidov, Abduqodir Xazratqulov va boshqa shogirdlarning xotiralari olimaning ilmiy rahbarlik uslubi, shogirdlar bilan ishlash tamoyillari hamda ilmiy maktabning ichki muhitini yoritishda alohida ilmiy ahamiyatga ega [8].

Mazkur manbalar Rahima Aminovanning nafaqat yirik olim, balki talabchan, adolatli va insonparvar ustoz sifatidagi qiyofasini tiklash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarix fanining zamonaviy metodologik tamoyillariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy asosini tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillari tashkil etdi. Rahima Aminovanning ilmiy maktabini kompleks baholash maqsadida tarixiy-qiyosiy, tarixiy-genetik, prosopografik hamda tarixshunoslik tahlili metodlaridan foydalanildi [9].

Tadqiqotning asosiy manbalarini Rahima Aminovanning ilmiy asarlari, uning ilmiy rahbarligida himoya qilingan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari, shogirdlarining xotiralari, O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi arxivida saqlanayotgan hujjatlar tashkil etdi. Shuningdek, olimaning pedagogik faoliyatiga oid biografik ma'lumotlar va ilmiy maktabining rivojlanishini aks ettiruvchi materiallar tahlil qilindi [10].

Tadqiqot davomida ilmiy rahbarlik faoliyati faqat himoya qilingan dissertatsiyalar soni bilan emas, balki ilmiy yo'nalishlarning shakllanishi, mavzular evolyutsiyasi, shogirdlarning keyingi ilmiy faoliyati hamda tarix fani taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siri orqali ham baholandi. Mazkur yondashuv Rahima Aminovanning ilmiy maktabini faqat pedagogik faoliyat emas, balki O'zbekiston tarixshunosligining mustaqil ilmiy fenomeni sifatida tadqiq etish imkonini berdi [11].

Tahlil va natijalar. O'zbekiston tarix fani taraqqiyotida ilmiy maktablar alohida o'rin tutadi. Chunki tarix fanining uzluksiz rivojlanishi nafaqat fundamental asarlar 1-jadval

Rahima Aminova ilmiy maktabining rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Davr	Asosiy ilmiy yo'nalishlar	Natija
I bosqich	1963–1969	Agrar tarix, kollektivlashtirish, irrigatsiya, ta'lim tarixi	Ilmiy maktabning shakllanishi
II bosqich	1970–1979	Ziyolilar tarixi, xotin-qizlar tarixi, xalq ta'limi, iqtisodiy tarix	Mavzularning diversifikatsiyasi
III bosqich	1980–1993	Ijtimoiy tarix, millatlararo munosabatlar, agrar siyosat, metodologik izlanishlar	Yetuk ilmiy maktabning shakllanishi

Manba: Muallif tomonidan Rahima Aminova rahbarligida himoya qilingan dissertatsiyalar va arxiv materiallari asosida tuzildi [6-13].

Ilmiy maktabning yana bir muhim xususiyati xotin-qiz tarixchi olimlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilganidir.

yaratilishi, balki ushbu ilmiy an'analarni davom ettira oladigan yangi avlod tarixchilarni tayyorlash bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan Rahima Aminova tomonidan shakllantirilgan ilmiy maktab XX asrning ikkinchi yarmidagi O'zbekiston tarixshunosligining eng yirik ilmiy maktablaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Rahima Aminova rahbarligida 16 nafar fan doktori va 57 nafar fan nomzodi ilmiy darajaga ega bo'lgan. Bu ko'rsatkich nafaqat uning ilmiy salohiyatini, balki tarix fanida uzluksiz ilmiy maktab yaratishga muvaffaq bo'lganini ham tasdiqlaydi. Muhimi, ushbu shogirdlarning aksariyati keyinchalik oliy ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari hamda O'zbekiston Fanlar akademiyasi tizimida faoliyat yuritib, yangi avlod tarixchilarini tayyorlash jarayonida faol ishtirok etdilar [12].

Rahima Aminova ilmiy maktabining rivojlanishida uchta asosiy bosqich kuzatiladi.

Birinchii bosqich 1960-yillarni qamrab olib, asosan agrar tarix yo'nalishi ustuvor bo'lgan davr hisoblanadi. Aynan shu davrda A. Tojiboyev, T. Goldman, K. Navlinskiy, T. Orpinov va E. Xaytaboyevlarning dissertatsiyalari himoya qilinishi, qishloq xo'jaligi, kollektivlashtirish, irrigatsiya, ta'lim va yoshlar harakati tarixiga oid ilmiy yo'nalishlar shakllandi. Bu davr Rahima Aminovanning ilmiy rahbar sifatidagi dastlabki muvaffaqiyatlarini namoyon etdi [13].

Ikkinchi bosqich 1970-yillar bo'lib, ilmiy maktabning eng faol rivojlangan davri hisoblanadi. Ushbu yillarda ilmiy tadqiqotlar mavzusi sezilarli darajada kengaydi. Agrar tarix bilan bir qatorda ziyolilar tarixi, xotin-qizlar tarixi, xalq ta'limi, urush yillaridagi iqtisodiy jarayonlar hamda ijtimoiy tarix yo'nalishlari rivojlandi. Ayniqsa, M. Bahritdinova, Q. Saidova, R. Nurqulova va O. Oxunjonovlarning tadqiqotlari Rahima Aminova ilmiy maktabining ko'p tarmoqli tus olganini ko'rsatadi [14].

Uchinchi bosqich 1980–1990-yillarni qamrab olib, mazkur davrda ilmiy maktabning metodologik salohiyati yanada mustahkamlandi. I. Olimov, Z. Orifxonova, I. Saidov va A. Xazratqulovlarning doktorlik tadqiqotlari nafaqat O'zbekiston, balki Markaziy Osiyo tarixining dolzarb muammolarini qamrab oldi [15]. Natijada Rahima Aminova ilmiy maktabi respublika tarixshunosligining yetakchi ilmiy markazlaridan biriga aylandi.

Rahima Aminovanning ilmiy rahbarlik uslubi zamonaviy ilmiy menejment nuqtai nazaridan ham alohida e'tiborga loyiqdir. Shogirdlarning xotiralari tahlili shuni ko'rsatadiki, u ilmiy rahbar sifatida tadqiqotchilardan avvalo manbalarni chuqur o'rganishni, arxiv hujjatlari bilan ishlashni, statistik ma'lumotlarni tanqidiy tahlil qilishni va har bir ilmiy xulosani ishonchli dalillar bilan asoslashni talab qilgan. Tayyor xulosalarni berish o'rniga u mustaqil ilmiy fikrlashni rag'batlantirgan.

Rahima Aminova rahbarligida Z. Orifxonova, M. Bahritdinova, Q. Saidova va boshqa ko'plab tadqiqotchilar tarix fanida yuqori ilmiy natijalarga erishdilar. Bu holat XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda ayol tarixchi olimlar korpusining

shakllanishida Rahima Aminovanning beqiyos xizmat qilganini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari akademik Rahima Hodiyevna Aminova nafaqat XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston tarixshunosligining yirik vakili, balki respublikada mustahkam ilmiy maktab yaratgan tarixchi olimlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Uning ilmiy rahbarligi ostida tayyorlangan 16 nafar fan doktori va 57 nafar fan nomzodi O'zbekiston tarix fanining turli yo'nalishlari rivojiga munosib hissa qo'shgan. Mazkur ko'rsatkichlar Rahima Aminovanning ilmiy maktabi shaxsiy ilmiy faoliyat doirasidan chiqib, milliy tarixchi kadrlar tayyorlash tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanganini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Rahima Aminovanning ilmiy maktabi rivojlanishi uch bosqichda kechgan. Dastlab agrar tarix yo'nalishi ustuvor bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ilmiy izlanishlar doirasi xalq ta'limi, irrigatsiya, milliy ziyolilar tarixi, xotin-qizlar tarixi, yoshlar harakati hamda ijtimoiy tarix masalalarini ham qamrab oldi. Bu holat olimanning ilmiy rahbar sifatida tadqiqotchilarni jamiyat taraqqiyotining dolzarb muammolariga yo'naltira olganidan dalolat beradi.

Rahima Aminovanning ilmiy rahbarlik metodologiyasining asosini manbashunoslikka tayangan holda tadqiqot olib borish, arxiv hujjatlari bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda mustaqil ilmiy pozitsiyani qaror toptirish tamoyillari tashkil etgan. Shogirdlarining xotiralari ushbu tamoyillar amalda izchil qo'llanilganini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Rahima Aminova ilmiy maktabining yana bir muhim xususiyati tarixchi ayollarni tayyorlash va ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Bu jihat XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekistonda tarix fanida faoliyat yuritgan ayol olimlar avlodining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

Rahima Aminova O'zbekiston tarixshunosligida mustaqil ilmiy maktab yaratgan yetakchi olimlardan biridir. Uning ilmiy rahbarlik faoliyati milliy tarixchi kadrlar tayyorlash tizimining institutsional rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Rahima Aminova ilmiy maktabida shakllangan metodologik yondashuvlar bugungi kunda ham tarixchi kadrlarni tayyorlash jarayonida dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shogirdlarining ilmiy merosi Rahima Aminova yaratgan ilmiy maktabning davomiyligini ta'minlagan va O'zbekiston tarixshunosligining yangi bosqichiga xizmat qilgan.

Takliflar. Rahima Aminova ilmiy maktabining barcha shogirdlari va ularning ilmiy merosini qamrab oluvchi elektron ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadga muvofiq. O'zbekiston tarix fanining rivojlanishida ilmiy maktablar tarixini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlarni kengaytirish zarur. Rahima Aminovanning shaxsiy arxivi, qo'lyozmalari va ilmiy yozishmalarini alohida ilmiy to'plam sifatida nashr etish tarixshunoslik uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida tarix fanini o'qitishda Rahima Aminovanning ilmiy rahbarlik tajribasi va metodologik qarashlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida: Farmon. – Toshkent, 2022.
2. Aminova R.H. Agrarnaya politika Sovetskoy vlasti v Uzbekistane (1917–1920 gg.). – Tashkent: Fan, 1963. – 344 p.
3. Aminova R.H. Agrarnye preobrazovaniya v Uzbekistane nakanune sploshnoy kollektivizatsii (1925–1929 gg.). – Tashkent: Fan, 1969. – 469 p.
4. Aminova R.H. Kolxoznoye krestyanstvo Uzbekistana v gody Velikoy Otechestvennoy voyny (1941–1945 gg.). – Tashkent: Fan, 1965. – 312 p.
5. Aminova R.H. Oktyabr i resheniye zhenskogo voprosa v Uzbekistane. – Tashkent: Fan, 1975. – 256 p.
6. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. Rahima Aminovanning shaxsiy fondi va ilmiy faoliyatiga oid hujjatlar. – Toshkent.
7. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxivi. Rahima Aminovanning ilmiy va pedagogik faoliyatiga oid arxiv materiallari. – Toshkent.
8. Tojiboyev A. O'zbekiston kolxozchi dehqonlarining keskin yuksalish uchun kurashi tarixidan (1953–1958-yillar). Tarix fanlari nomzodi dissertatsiyasi. – Toshkent, 1963.
9. Goldman T. Shkolnoye obrazovaniye v Uzbekistane v gody Velikoy Otechestvennoy voyny (1941–1945 gg.). Candidate Dissertation. – Tashkent, 1964.
10. Saidova Q. Borba trudyashchikhsya Uzbekistana za orosheniye i osvoyeniye Golodnoy stepi (1946–1958 gg.). Candidate Dissertation. – Tashkent, 1974.
11. Olimov I.A. Istoricheskiy opyt agrarnykh preobrazovaniy v Khorezmskoy i Bukharskoy Narodnykh Sovetskikh Respublikakh. Doctoral Dissertation. – Tashkent, 1981.
12. Orifxonova Z.X. Osushchestvleniye leninskikh printsipov proletarskogo internatsionalizma v Sredney Azii. Doctoral Dissertation. – Tashkent, 1984.
13. Xazratqulov A. O'zbekistonda ijtimoiy muammolar va ularni hal etish yo'llari (1917–1990-yillar). Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 1993.
14. Aminova R.H. Iz istorii raskrepushcheniya zhenshchin Sredney Azii v pervyye gody Sovetskoy vlasti (1919–1927 gg.). – Tashkent, 1962. – 54 p.
15. Aminova R.H. Velikaya Oktyabrskaya sotsialisticheskaya revolyutsiya i raskrepushcheniye zhenshchiny-uzbechki. – Tashkent, 1957. – 32 p.